O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI SHAROF RASHIDOV TUMANI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 15 - yanvar 6-3-46-Q/24 Sharof Rashidov tuman hokimligi

Tuman hokimining 2023-yil 15-noyabr kuni “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj,ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024 yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 240-3-46-Q/23-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish xaqida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi asosida, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi Nizomga asosan tumandagi korxona va tashkilotlarda 2024 yil mobaynida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 224 ta ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida qabul qilinganlik xaqidagi tuman hokimining Tuman hokimining 2023-yil 15-noyabr kuni “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj,ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024 yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 240-3-46-Q/23-son qarorining 1-bandi hamda 2 bandining “b” kichik bandini “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunning 39-moddasi uchinchi qismi talabiga muvofiq bo‘lmasdan 10 foiz etib noto‘g‘ri qo‘lanilganlik xaqidagi Sharof Rashidov tuman adliya bo‘limining taqdimnomasini ko‘rib chiqib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Sharof Rashidov tuman adliya bo‘limining 2023 yil 20 dekabrdagi 581/8-sonli taqdimnomasini qanoatlantrilsin.

2. Tuman hokimining 2023-yil 15-noyabr kuni “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj,ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024 yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 240-3-46-Q/23-son qarorining 1 bandi hamda 2-bandi “b” kichik bandidagi 10 foiz so‘zlari 7 foiz deb o‘qilsin.

3. Sharof Rashidov Tuman hokimining 2023-yil 15-noyabr kuni “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj,ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024 yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 240-3-46-Q/23-son qarorining qolgan qismi o‘zgarishsiz o‘z kuchida qoldirilsin.

4.Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.Xolbutayev**